

**O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION
TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI**
II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani
**O‘ZBEKISTON JANUBIDA SABZAVOT LOVIYASINI ASOSIY VA
TAKRORIY EKIN SIFATIDA MAQBUL EKISH MUDDATLARI, EKISH
SXEMALARI VA URUG‘ MAHSULDORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARINI
ANIQLASH**

Yo‘ldoshev Ma‘rufjon Shuxrat o‘g‘li

TDMAU, tayanch doktoranti

marufjonyuldoshev7710@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0006-5599-5270>

Aramov Muzaffar Xoshimovich

TDMAU, professori, q.x.f.d.

e-mail: aramov-muzaffar@mail.ru

<https://orcid.org/0009-0004-2792-3283>

Annotatsiya Ushbu maqolada sabzavot loviyasining (*Phaseolus vulgaris* L.) O‘zbekiston janubiy mintaqasi sharoitida asosiy va takroriy ekin sifatida ekish muddatlari, ekish sxemalari hamda urug‘ mahsuldorligini oshirish yo‘llari o‘rganilgan. Tajribalar 2025-yilda Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti Surxondaryo ilmiy tajriba stansiyasida o‘tkazilgan. Tadqiqotlar 3-, 4- va 5-tajribalardan iborat bo‘lib, bahorgi ekish muddatlari, ekish sxemalari va urug‘ uchun ekin zichligining ta’siri o‘rganilgan. Natijalar sabzavot loviyasining eng maqbul ekish muddatlari 1-aprel va 60×10/2 sm ekish sxemasi bo‘lganda o‘simliklarning rivojlanishi va hosildorlik yuqori bo‘lishini ko‘rsatdi. Urug‘ uchun esa 60×10 sm sxema eng yuqori urug‘ hosildorligini ta’minladi.

Kalit so‘zlar: sabzavot loviyasi, ekish muddati, ekish sxemasi, urug‘ mahsuldorligi, Surxondaryo, takroriy ekin.

Аннотация В статье представлены результаты изучения влияния сроков посева, схем посева и густоты стояния растений на урожайность овощной фасоли (*Phaseolus vulgaris* L.) в условиях южных регионов Узбекистана. Эксперименты проводились в 2025 году на Сурхандарьинской опытной станции Научно-исследовательского института овощных, бахчевых культур и картофеля.

O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani

Установлено, что оптимальными сроками посева являются 1 апреля и схема 60×10/2 см, обеспечивающие наибольшую урожайность. Для семеноводческих посевов наиболее эффективной оказалась схема 60×10 см, способствующая получению качественных семян.

Ключевые слова: овощная фасоль, сроки посева, схема посева, урожайность семян, Южный Узбекистан.

Abstract This study investigates the optimal sowing dates, planting patterns, and seed productivity improvement methods of vegetable bean (*Phaseolus vulgaris* L.) under the southern Uzbekistan climatic conditions. The experiments were conducted in 2025 at the Surkhandarya Experimental Station of the Research Institute of Vegetable, Melon and Potato Crops. Results indicated that sowing on April 1 with a 60×10/2 cm spacing produced the highest yield and better plant growth, while for seed production, the 60×10 cm spacing was found to be most efficient.

Keywords: vegetable bean, sowing date, planting pattern, seed yield, Surkhandarya, secondary crop.

Kirish. O‘zbekiston janubiy viloyatlarida, xususan, Surxondaryo viloyati sharoitida sabzavot ekinlari orasida loviya muhim oziq-ovqat va eksportbop mahsulot sifatida ahamiyat kasb etmoqda. Uning yuqori oqsilli urug‘lari aholi oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda va chorvachilik uchun oqsil manbai sifatida muhim rol o‘ynaydi. So‘nggi yillarda sabzavot loviyasini asosiy va takroriy ekin sifatida ekish tajribalari ko‘paymoqda, biroq janubiy mintaqa sharoitida optimal ekish muddatlari, ekish sxemalari va urug‘ uchun ekish zichligini aniqlash masalasi yetarli darajada o‘rganilmagan.

Tadqiqotning maqsadi O‘zbekistonning janubida sabzavot loviyasi o‘simligi nav namunalari to‘plamini morfologik, xo‘jalik qimmatli belgilari bo‘yicha baholash va shu asosda istiqbolli navlarni ajratish va ularni turli mavsumlarda maqbul ekish muddatlari va oziqlanish maydonini aniqlash, yuqori va sifatli urug‘ yetishtirishda maqbul ekish muddatlari va mavsumlarini aniqlash tadqiqotlarning maqsadi hisoblanadi.

O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani

Tadqiqotning vazifalari. Qo‘yilgan maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar qo‘yildi:

- 1.sabzavot loviyasining nav namunalarini asosiy morfologik belgilar bo‘yicha o‘rganish va istiqbolli navlarni ajratish;
- 2.eng istiqbolli navlarni kompleks baholash va tanlov sinovini tashkil etish;
- 3.sabzavot loviyasini O‘zbekiston janubida asosiy va takroriy ekin sifatida maqbul ekish muddatlarini aniqlash;
- 4.sabzavot loviyasining maqbul ekish sxemasini aniqlash;
- 5.sabzavot loviyasining urug‘ mahsuldorligini aniqlash va uni oshirish uslublarini ishlab chiqish;
- 6.sabzavot loviyasining xo‘jalik muhim belgilarining o‘zgaruvchanligini va ular o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘liqlikni aniqlash.

Tadqiqot ob‘ekti bo‘lib Samarqand qishloq xo‘jaligi instituti seleksiyasiga mansub 2 ta, Belarus Respublikasi va Rossiya Federatsiyasining yetakchi seleksiya kompaniyalaridan olib kelingan 15 ta, Turkiya davlatidan keltirilgan 3 ta va o‘zimizning mahalliy 10 ta nav namunalari to‘plami, o‘simliklari, urug‘lari xizmat qiladi.

Tadqiqot predmeti bo‘lib sabzavot loviyasi nav namunalarini har tomonlama o‘rganish va istiqbolli navlarni tanlash, ushbu ekinlarning ekish sxemalari va muddatlari, sabzavot loviyasining urug‘ mahsuldorligi va urug‘larning ekinboplik xususiyatlari hisoblanadi.

Tadqiqot materiali va usullari: Tajriba ishlari 2025-yilda sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti surxondaryo tajriba stansiyasi da o‘tkazildi. Tajriba uchastkalari 10,1 m² maydonda, 4 qatorli, 4,2 m uzunlikda va 2,4 m enlikda joylashgan.

- 3-tajriba – Ekish muddatlari: 20 mart, 1 aprel (nazorat), 10 aprel.
- 4-tajriba – Ekish sxemalari: 60×10 sm (nazorat), 60×10/2 sm, 60×8/2 sm.
- 5-tajriba – Urug‘ uchun ekish sxemalari: 60×5, 60×10, 60×15 sm. Har bir variant 3

O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani

martadan takrorlangan. O‘simliklarning fenologik bosqichlari, bo‘y o‘shishi, poya soni, hosil elementlari va urug‘ massasi aniqlandi.

Natijalar: 3-tajriba natijalariga ko‘ra, 1-aprel muddatida ekilgan loviyalar eng yaxshi o‘shish va rivojlanish ko‘rsatkichlarini namoyon etdi. Hosildorlik 20 martda 14,2 s/ga, 1 aprelda 15,8 s/ga, 10 aprelda esa 13,6 s/ga bo‘ldi.

4-tajriba natijalariga ko‘ra, 60×10/2 sm sxemada hosil 16,1 s/ga ni tashkil etdi, nazoratda (60×10 sm) 15,3 s/ga, 60×8/2 smda esa 14,8 s/ga hosil olindi.

5-tajriba natijalariga ko‘ra, 60×10 sm sxemasi eng yuqori urug‘ hosildorligini ko‘rsatdi (1,83 t/ga).

Muhokama: Natijalar tahlili shuni ko‘rsatdiki, sabzavot loviyasining optimal ekish muddati 1-aprel hisoblanadi. Bu davrda tuproq harorati 12–14 °c bo‘lib, unib chiqish bir maromda kechadi. Ekish sxemalari ichida 60×10/2 sm ikki qatorli sxema fotosintez faoliyatini yaxshilab, hosildorlikni oshiradi. Urug‘lik uchun esa 60×10 sm sxemasi eng maqbul bo‘ldi.

Xulosa: 1. Sabzavot loviyasi uchun O‘zbekiston janubiy sharoitida eng maqbul ekish muddati – 1-aprel hisoblanadi. 2. Hosildorlik bo‘yicha eng samarali ekish sxemasi – 60×10/2 sm ikki qatorli joylashuv bo‘ldi. 3. Urug‘ olish uchun esa 60×10 sm sxemasi tavsiya etiladi. 4. Ushbu natijalar asosida sabzavot loviyasining asosiy va takroriy ekin sifatida yetishtirish texnologiyasini yanada takomillashtirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Zuev V.I., Qodirxo‘jaev O.Q., Adilov M.M., Akromov U.I. Sabzavotchilik va polizchilik. Toshkent . 2009.-b. 124-135.

2. O‘zbekiston Respublikasi hududida ekish uchun tavsiya etilgan qishloq xo‘jalik ekinlari Davlat reestri. -Toshkent, 2020. -b. 55.

3. Turkiya Respublikasi “Oziq-ovqat qishloq xo‘jaligi vazirligi” hamda “Denizbank” hamkorligida tayyorlangan “100 ta kitob” dan iborat to‘plami.

4. Zuev V.I., Abdullaev A.G. Sabzavot ekinlari va ularni yetishtirish texnologiyasi. T., «O‘zbekiston», 1997. -b. 342

O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani

5. Bo‘riev X.Ch, Zuev V.I., Qodirxo‘jaev O.Q., Muhamedov M.M. «Ochiq joyda sabzavot ekinlari yetishtirishning progressiv texnologiyalari» T., “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” 2002. -b. 245- 251.
6. Boltaev B.S., Sulaymonov B.A., Mavlyanova R.F., Xolmurodov E.A., Rustamova I.B. Sabzavot ekinlarining zararkunanda, kasalliklari va ularga qarshi kurash choralari. Toshkent: 2013. -b. 23-28.
7. Бохан, А.И. Генофонд и селекция корнеплодных растений вида *Raphanus sativus* L. (редис, редька, дайкон, лоба) / А.И. Бохан, В.Е. Юдаева. –М.: ФГБНУ ВСТИСП, 2015. – 134 с.
8. Бунин, М.С. Новые овощные культуры России / М.С. Бунин. – М.:ФГНУ «Росинформагротех», 2002. – 408 с.
9. Aramov M.X. va boshqalar. Sabzavot ekinlari yetishtirish texnologiyasi. – T.: Mehnat, 2020.
10. Rasulov M.B. Dukkakli ekinlarning biologiyasi va seleksiyasi. – Toshkent: Fan, 2019.
11. Khamidov U.S. et al. Agroecological conditions for bean cultivation in Uzbekistan. – Journal of Crop Research, 2021.
12. FAO. Legume production and sustainable soil management. – Rome, 2022.
13. Karimov N., Aramov M.X. Loviyaning urug‘ mahsuldorligini oshirish texnologiyasi. – O‘zbekiston agrar jurnali, 2023, №4.